

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat  
va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik  
jihatdan tartibga solish agentligining  
“ 3 ” iyul 2023 yildagi  
108k -con buyrug‘iga  
11-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi  
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi  
Raqamlashtirish bo‘limi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb ataladi) Raqamlashtirish bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda – Raqamlashtirish bo‘limi deb ataladi) qo‘yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Raqamlashtirish bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. Raqamlashtirish bo‘limi boshlig‘i lavozimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishidagi oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan, shuningdek, mazkur yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

4. Raqamlashtirish bo‘limi boshlig‘i Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

5. Raqamlashtirish bo‘limi xodimi sifatidagi mehnat staji boshqa davlat organlari va boshqa tashkilotlariga o‘tganda ko‘p yillik xizmat uchun qo‘shimcha to‘lov va ustamalarni to‘lash uchun mo‘ljallangan mehnat staji hisobga olinadi.

**2-bob. Raqamlashtirish bo‘limi faoliyatini tashkil etish**

6. Raqamlashtirish bo‘limi o‘z faoliyatini Agentlik, shuningdek Agentlikning tizim tashkilotlaridagi raqamlashtirish uchun mas‘ul bo‘linmalari, respublikaning boshqa vazirlik va idoralarning tegishli bo‘linmalari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

Raqamlashtirish bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasining so‘roviga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish holati bo‘yicha yuklatilgan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan ma‘lumotlar kiritadi.

7. Raqamlashtirish bo‘limi o‘z faoliyatida, Agentlik bosh direktori hamda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va nazorat qilishga mas‘ul etib tayinlangan rahbarning o‘rinbosariga (raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosar) bevosita bo‘ysunadi.

8. Raqamlashtirish bo'limi boshlig'i bo'lmagan taqdirda uning funksiyasini bosh mutaxassis bajaradi.

9. Raqamlashtirish bo'limi xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda kamida bir marta malakasini oshiradi hamda har uch yilda bir marta attestatsiyadan o'tadilar.

10. Davlat organlari va tashkilotlarida har yili mazkur davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar samaradorligi to'g'risidagi bo'linma faoliyatining hisoboti eshitiladi.

### **3-bob. Raqamlashtirish bo'limining asosiy vazifalari va funksiyalari**

11. Raqamlashtirish bo'limining asosiy vazifalari:

Agentlikda va uning tarkibiy tuzilmalarida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasidagi loyihalarni keng joriy etish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash;

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda Agentlik va uning tizim tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ushbu xizmatlarni ko'rsatishda amalga oshiriladigan jarayonlarni optimallashtirish va avtomatlashtirishni hisobga olgan holda elektron shaklga o'tkazish choralari ko'rish;

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat doirasidagi loyihalarning bajarilishini monitoring qilish va nazorat qilish;

Agentlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha dasturiy mahsulotlar va axborot resurslarini yaratish va ularni uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlashda zarur chora-tadbirlarni ko'rish, internetga ochiq ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda sifatli joylashtirilishini ta'minlash;

Agentlikning barcha bo'linmalari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishni normativ, texnologik, axborot va tahliliy qo'llab-quvvatlash;

Agentlikning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ishida uzluksiz ishlashni va favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralari ko'rish.

12. O'zlariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq Raqamlashtirish bo'limi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) Agentlikda va uning tarkibiy tuzilmalarida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida:

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni strategik rivojlantirish va amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritalari, idoraviy dasturlarni ko'rib chiqish, kelishish, tasdiqlash uchun axborot, aloqa va ma'lumotlarni uzatish vositalarini qayta ishlash, saqlash uchun foydalaniladigan axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot va apparat vositalari uchun Agentlik tizimida yagona standartlarni belgilaydigan hujjatlarni belgilangan tartibda Raqamli texnologiyalar vazirligiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron hukumat sohasidagi loyihalar ro'yxatini ishlab chiqadi va taqdim etadi;

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni strategik rivojlantirish va joriy etish bo'yicha Yo'l xaritalari va idoraviy dasturlarda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlaydi;

ichki jarayonlarni avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va ularga qo'shimchalar kiritish, shuningdek, joriy etish uchun loyiha-texnik hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi davlat standartlariga hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilishini ta'minlaydi va vakolatli tashkilotlardan ekspertizadan o'tkazadi;

“Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reestri”ga ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli kiritib boradi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha tashkilotning xarajatlar smetasiga kiritish uchun ushbu yo'nalishdagi xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqadi va tegishli tuzilmaga taqdim etadi;

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va texnik tadbirlarni amalga oshiradi;

davlat dasturlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish sohasida Agentlikka yuklatilgan ish samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) bajarilishini ta'minlaydi;

b) Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda Agentlik va uning tizim tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ushbu xizmatlarni ko'rsatishda amalga oshiriladigan jarayonlarni optimallashtirish va avtomatlashtirishni hisobga olgan holda elektron shaklga o'tkazish choralari ko'rish sohasida:

raqamlashtirish bo'yicha rahbar o'rinbosariga (raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarga) Agentlikning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha aniq asoslangan taklif va tashabbuslarni taqdim etadi va ushbu yo'nalishdagi ishlarni tashkil qiladi;

davlat xizmatlarini ko'rsatishda amalga oshiriladigan jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlaydi va kiritadi;

Agentlikda amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to'g'risida doimiy ma'lumotlarni oladi va umumlashtiradi;

Agentlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalari va elektron hukumatni joriy etish, shuningdek axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va kiritadi.

v) raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat doirasidagi loyihalarning bajarilishini monitoring qilish va nazorat qilish sohasida:

ushbu yo'nalishdagi moliyaviy resurslarni behuda va samarasiz sarflanishining oldini olishni ta'minlash tartibini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Agentlikning boshqa tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda texnik-iqtisodiy asoslarni va axborot-texnik vositalarni, axborot xavfsizligini ta'minlash vositalarini, dasturiy ta'minotni, xizmatlarni va ishlarni sotib olishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqadi;

davlat xizmatlari jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirishni hisobga olgan holda elektron shaklga o'tkazishda elektron davlat xizmati reglamenti va texnik hujjatlarini ishlab chiqadi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritadi;

elektron davlat xizmatlarining reglamentlarini ishlab chiqadi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritadi.

g) Agentlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha dasturiy mahsulotlar va axborot resurslarini yaratish va ularni uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlashda zarur chora-tadbirlarni ko'rish, internetga ochiq ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni joylashtirish sohasida:

Agentlik tizim tashkilotlari bilan birgalikda Agentlikning rasmiy veb-saytida va O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida qonun hujjatlariga muvofiq majburiy joylashtirilishi shart bo'lgan ochiq ma'lumotlarni joylashtirish va belgilangan muddatlarda yangilab turish choralari ko'radi;

idoralararo avtomatlashtirilgan nis.uz, adm.ijro.uz va boshqa tizimlar orqali raqamlashtirish sohasidagi vakolatlari doirasida Agentlik tomonidan qarorlarning bajarilishini tashkil qiladi, shuningdek ma'lumotlarning o'z vaqtida va to'liq kiritilishini ta'minlaydi;

elektron davlat xizmatlarini olish bilan bog'liq barcha zarur ma'lumotlarni keyinchalik ularni O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga joylashtirish uchun Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim etadi;

elektron davlat xizmatlarini olish bilan bog'liq elektron davlat xizmatlarining pasportlari va barcha zarur ma'lumotlarni keyinchalik ularni O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga joylashtirish uchun Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim etadi;

d) Agentlikning barcha bo'linmalari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishni normativ, texnologik, axborot va tahliliy qo'llab-quvvatlash sohasida:

keng qamrovli tizim tahlilini o'tkazish va Agentlik bo'linmalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

Agentlik faoliyatida axborot tizimi va resurslarini keng joriy etishni ta'minlaydigan raqamli transformatsiyaning idoraviy dasturlarini ishlab chiqadi;

Agentlik raqamli infratuzilmasining axborot xavfsizligini, shuningdek elektron ma'lumotlar va hujjatlarni himoya qilishni ta'minlaydi;

y) Agentlikning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ishida uzluksiz ishlashni va favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralari ko'rish sohasida:

axborot tizimlari va resurslarini yaratish, dasturiy mahsulotlar va elektron davlat xizmatlarini joriy etish choralari ko'radi va ushbu yo'nalishda kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish choralari ko'radi;

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish maqsadida, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini muntazam ravishda ishlashini ta'minlaydi;

belgilangan tartibda Agentlikning axborot tizimlari va resurslari, ma'lumotlar bazalari, shuningdek kompyuterlari, nusxa ko'chirish va ko'paytirish uskunalari uzluksiz ishlashini ta'minlaydi;

Agentlik veb-resurslarining axborot tarkibi, ularning tuzilishini, tarkibi va interaktiv xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi va amalga oshiradi.

#### **4-bob. Raqamlashtirish bo'limining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

13. O'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun Raqamlashtirish bo'limi quyidagilarga haqlidir:

Agentlikning boshqa tarkibiy bo'linmalaridan, bo'ysunuvchi tashkilotlaridan belgilangan tartibda bo'linma vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rash;

Agentlik majlislarida, yig'ilishlarida va boshqa tadbirlarida qatnashish;

berilgan vazifalarni bajarish uchun shartnoma asosida raqamlashtirish bo'yicha rahbar o'rinbosariga (raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarga), Agentlikning boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari, shuningdek malakali mutaxassislar, boshqa tashkilotlarning mutaxassislarini jalb qilish;

Raqamli texnologiyalar vazirligi va boshqa idoralar bilan belgilangan tartibda o'zaro aloqada bo'lish;

rahbariyat nomidan Agentlikning vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha boshqa davlat organlarida, respublika va xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarda Agentlik nomidan ishtirok etish;

axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi ichki siyosatni takomillashtirish bo'yicha takliflarni rahbariyat tomonidan ko'rib chiqish uchun bo'linma faoliyati to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar loyihalarini kiritish;

har oyda bajarilgan ishlarning olib borilishi to'g'risida hisobot natijalariga ko'ra, Raqamlashtirish bo'limi boshlig'i moddiy rag'batlantirish uchun bo'lim xodimlariga nomzodlarni rahbariyatga taqdim etishga haqlidir.

14. Raqamlashtirish bo'limi quyidagilar uchun majburdir:

Agentlikda va uning tarkibiy tuzilmalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, davlat standartlari va texnik reglamentlarining talablariga rioya etilishiga;

ushbu Nizomda, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni samarali bajarishga;

zamonaviy axborot texnologiyalari va elektron hukumatni joriy etish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlar ijrosi sifatiga;

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasidagi loyihalarni, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha dasturlarni, yo'l xaritalarini va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirishga;

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan ta'qiqlangan xatti-harakatlarni yo'l qo'yilmasiligiga;

Raqamlashtirish bo'limiga yuklatilgan boshqa vazifalar va funksiyalarni samarali bajarishga.

15. Raqamlashtirish bo'limi o'ziga yuklatilgan vazifalarning ushbu Nizom va qonunchilikka muvofiq bajarilishi uchun javob beradi. Shuningdek, Raqamlashtirish bo'limi o'zi imzo (viza) qo'ygan hujjatlarning tegishli qismi bo'yicha to'g'riligiga javob beradi.

Raqamlashtirish bo'limi xodimi o'z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

16. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Nizom bilan tanishdim